

**Arzikulova Kamola**

*Samrqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi Kutubxona mudirasi*

**Annotatsiya:** *O'zbekiston xalqining ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho'qqilarini zabt etishning mashaqqatli bosqichlarini ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichlarda davlatchiligimizning shakllanishi, jamiyatda ilm-u fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga hissa qo'shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi.*

**Kalit so'zlar:** *ma'naviyatli, renessans, tashkilot, riqadriyatlarimiz, intellektual salohiyat, moddiy baza;*

### **Kirish**

"Yangi O'zbekistonni yetuk ma'naviyatli jamiyat, yerkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz uchun barcha tizim tashkilotlari bilan bir qatorda vazirlik va idoralar, tashkilot rahbarlari, ziyolilar, olimlar, qisqacha aytganda barcha ertasiga befarq bo'lmagan odamlar birlikda harakat qilishi, qo'lni-qo'lga berib ishlashi zarur. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev azaliy milliy qadriyatlarimiz, otabobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo'qolishi xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga ye'tibor qaratish g'oyat birlamchi vazifamizdir, deya ta'kidlaganlar.

### **Asosiy qism**

Bugungi kunda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, bu jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bunda, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – oliy maqsaddir.

Ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining mamlakatimiz taraqqiyotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirishga qaratilgan alohida dasturlar qabul qilinadi. Ijodkor ziyolilarga doimiy e'tibor qaratish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar davom ettiriladi.

Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Hududlarning madaniy yuksalishi, xalq hunarmandchiligini ravnaq toptirishga qaratilgan manzilli

ishlarni tizimli asosda olib boriladi. Mamlakatimizda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash, fuqarolarimizni turli mafkuraviy tahdidlardan, zararli oqim va g‘oyalardan himoya qilish masalalari bundan buyon ham diqqat markazida bo‘ladi.

Muqaddas dinimiz, ezgu fazilatlarimizning mujassam ifodasi sifatida qadrlanadi. Yurtimizda turli diniy konfessiyalar uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan siyosat izchil davom ettiriladi.

“Renessans” lug‘aviy fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma‘noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san‘atda, ta‘lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o‘rta asrlar mutaassibliigidan keyin 15-16 asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo‘llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o‘zbek tiliga Uyg‘onish davri deb o‘girilgan.

Bugun milliy ma‘naviyatimizni qaytadan idrok etib, qaytadan uni chuqurroq tanib, yangi milliy mafkuramizni shakllantirish vaqti keldi. Ma‘naviyat targ‘iboti asosi, yadrosi Prezidentimiz ta‘kidlayotgan adolatdan va insonparvarlik tamoyilidan iborat bo‘lishi kerak. Milliy mafkura esa ana shunday millatni yashatadigan, bo‘g‘maydigan, gullatadigan, gullarini qirqmaydigan ma‘naviyat targ‘iboti orqali amalga oshirilishi zarur. Qachonki millat ziyolilar fikrlar xilma-xilligi va sog‘lom munozaraga o‘rgansalar, mamlakatda chin ma‘noda ma‘naviy yuksalish bo‘ladi. Shaxs haq-huquqlarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaydigan muhim omil ma‘naviy omildir.

O‘zbek uchun o‘zi tomonidan qilingan aybi, gunohi uchun mahalladan, qo‘ni-qo‘shnilardan, quda-andalardan uyalishdan ham kuchliroq jazo yo‘q. Chunki uning uchun eng muhimi-o‘zining qadr-qimmatini, hamiyati. O‘z qadrqimmatining kamsitilishi, buning uchun birovdan dakki, e‘tiroz eshitish uning uchun o‘limdan battar. Ayni paytda bu borada muayyan yo‘qotishlar ham yuz berayotganligini ham eslash lozim. Umuman, o‘zbek xalqi uchun qonundan ham jamiyat va shaxslar oldidagi ma‘naviy mas‘uliyat ustuvorroq ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasini qabul qilish chog‘ida aynan o‘sha narsalar-o‘zbek mentaliteti, uning ma‘naviyati, tabiati eng muhim omillar sifatida e‘tiborga olingan.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, kiyinish madaniyati – insonning tashqi ko‘rinishi, ma‘naviy dunyosi, axloqiy sifatlari va salohiyatini, nafosat va odob borasidagi qarashlarini ifoda etadigan omil hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi jadal rivojlanib borayotgan global davrda, xotin –qizlarimiz va yoshlarimizni o‘zida milliylik aks etgan kiyinish madaniyatiga e‘tiborni kuchaytirishimiz kerak. Shuningdek, demokratik davlat qurishdagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida yuksak ma‘naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat‘iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash, chuqur bilimga ega bo‘lgan tashabbuskor, shijoatli xotin-qizlar va yoshlar faolligini oshirish hamda ular safini kengaytirish masalasi, albatta, biz, ustoz – murabbiylarning yuksak kasbiy mahorat talab etuvchi vazifasi hisoblanadi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda mustaqillik yillarida O‘zbekistonda insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishda muayyan yutuqlarga erishildi. Fuqarolarda siyosiy-huquqiy madaniyat saviyasi muttasil ravishda oshib bormoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” “O‘zbekiston”-2016-yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir” Toshkent“Tasvir nashriyoti uyi”-2021-yil.
3. Karimov I.A. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: «O‘zbekiston», 1995.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.: O‘zbekiston, 2000